

## HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARIDA KASBIY ONGNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY TARBIYANING AHAMIYATI

*Ergashev Elyor Urdushevich,  
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi  
Universiteti mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada huquqni muhofaza qilish organlarida kasbiy ongni shakllantirishda zamonaviy tarbiyaning ahamiyatini ilmiy jihatdan yoritib berishga harakat qilingan.

**Kalit so‘zlar:** tarbiya, zamonaviy tarbiya, qiyosiy tahlil, huquqni muhofaza qilish organlari, kasbiy ong, fenomen tushunchasi.

## ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ В ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫХ ОРГАНАХ

**Аннотация:** в данной статье предпринята попытка научно обосновать значение современного воспитания и образования в развитии профессионального сознания сотрудников правоохранительных органов.

**Ключевые слова:** образование, современное образование, сравнительный анализ, правоохранительные органы, профессиональное сознание, концепция феномена.

## THE IMPORTANCE OF MODERN EDUCATION IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL CONSCIOUSNESS IN LAW ENFORCEMENT AGENCIES

**Abstract:** This article attempts to scientifically illuminate the importance of modern education in the formation of professional consciousness in law enforcement agencies.

**Key words:** education, modern education, comparative analysis, law enforcement agencies, professional consciousness, concept of phenomenon.

Yangi O‘zbekistonda yosh avlodni tarbiyalash na faqat ta’lim va tarbiyaga bog‘liq, shuningdek uni o‘rab turgan muhitga, ayniqsa oiladagi muhitga ko‘p jihatdan bog‘liq. Yangi O‘zbekistonda yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha tarbiyachi ofitser sub’ektlardan tarbiya taqdiri haqida ko‘plab munozaralar, uning ko‘p sonli tushuncha va talqinlarni o‘rganishni talab etmoqda<sup>1</sup>.

Yangi O‘zbekistonda zamonaviy tarbiyani olib borayotgan sub’ektlarning

<sup>1</sup> Maxmudov R.M. Harbiy pedagogika va psixologiya. -T.: TVVTU, 1998. -201 bet.

faoliyatdagi ba'zi bir noaniqliklar va ularga alohida yondashishning ko'p qirraliligi har bir ichki ishlar organi xodimlarining ko'p qirrali shaxs ekanligi ularning professional tarbiyachi bo'lib shakllanishi bilan bog'liq, ayniqsa ijtimoiy xodisalar orasida tarbiyaning o'rnini belgilashga ta'sir qiluvchi omillar ma'lum bo'lmoqda. Shuning uchun ham na faqat ta'limda innovatsiya talab qilinmoqda, shuningdek tarbiyaga ham yangicha yondashuv zamon talabidir.

Yangi O'zbekistonda barcha sohalarda yangicha yondashuvlar talab qilinmoqda, yangicha yondashuv tarbiyada na faqat tarbiya nazariyasini, shuningdek tarbiyada dual ta'limga yondashuvni ham talab etilmoqda. Tarbiyadagi "Dual" bu so'z bilan amaliy faoliyatni birligi ma'nosida tushuniladi<sup>2</sup>. Yangi O'zbekistonda kasbiy pedagogikaga zamonaviy yondashuv orqali nazariy tushunchalarni kasbiy pedagogikaning kategoriyalarini faol ravishda qayta ko'rib chiqishni vaqti keldi. Shu munosabat bilan ijtimoiy pedagogik jarayonlarning globallasuvi munosabati bilan chet el tarbiya makonida yuzaga keladigan tendensiyalarni hisobga olish mumkin emas. Bugungi kundagi ta'lim va tarbiyadagi global muammolar tarbiyada duallikni talab etmoqda. Mumtoz tarbiyaning o'rnini innovatsion tarbiya egallamoqda. Zamon shuddat bilan o'zgarib borar ekan, tarbiyada ham o'zgarish yuzaga kelmoqda, masalan, "telefono maniya", "kompyuter maniya" deyarli barcha yoshlarni ongini shunchalik tez o'zgarishiga yordam bermoqda, ushbu vositalardan tezkor ma'lumotlarni olayotganlari yaxshi, lekin ma'lumotlar har doim ham ijobiy ma'no kashf etadi deb ayta olmaymiz.

Innovatsion texnologiyalar va tarbiyadagi yangiliklar tarbiyachi ofitser fenomenini shakllantirishning o'ziga xos jihatlarini yaratish lozimligini ko'rsatmoqda va dolzarb masala sifatida qaralishi lozim. Xorijiy tadqiqotlar o'rganilganda xorijiy huquqni muhofaza qilish xodimlari bilan bizning xodimlar o'rtasidagi farq yaqqol ko'rinib qoladi, sababi har bir tizimning, siyosatning ta'siri bari-bir tarbiyada bilinadi. Shuning uchun tarbiyada, tarbiyalashda yagona tushuncha mavjud emas. Huquqni muhofaza qilish xodimlarining kasbiy faoliyatida tarbiya mezonlarni umuminsoniy va zamonaviy tarbiya talablari bilan birgalikda olib borib bo'lmaydi, chunki "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunda ichki ishlar organ xodimlarini kasbiy ongini shakllantiradi va Qonunlar asosida tarbiyalanadi.

Yangi O'zbekistonda eng avvalo kasbiy tarbiyani kasbiy ong orqali shakllantirilib, kasbiy pedagogika kategoriya sifatida metodologiyasini asoslash davr va pedagog olimlar talabi hisoblanadi. Harbiya pedagogikada metodologiyaning markazida tarbiyaning kategoriyalarini hosil qiluvchi "kasbiy tarbiya" atamasi yotadi. Bundan tashqari, tarbiya fenomenini hosil qilishga yordam beruvchi va atamalarni shakllantirishda kasbiy pedagogikadagi bo'shliqni to'ldiruvchi uslublarni aniqlash lozim. Harbiy pedagogikada metodologiya tadqiqotlarini tarbiya fenomenini

<sup>2</sup> Asqarova U.M. va boshqalar. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2008. B.288.

takomillashtirishning ilgʻor tendensiyalarini qamrab oladigan kasbiy pedagogika fani va amaliyotining shu yoʻnalishiga qaratish lozim. Kasbiy pedagogika ilm-fan amaliyotida kasbiy tarbiya fenomenini oʻrganishga metodologik yondashuvlar yangilanishning muhim sababi shundan iboratki, kasbiy tarbiyani, kasbiy ongni oʻzagi sifatida mustaqil izlanishga qaratish lozim degan ilmiy qarashlar mavjud.

XXI asrga kelib kasbiy pedagogikadagi umuman ijtimoiy pedagogikada tarbiyani yangilash gʻoyasi muhim hisoblanmoqda, chunki XXI asr yoshlar tarbiyasida sezilarli oʻzgarishlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Maxaalliy pedagogik tadqiqotlarda yurisprudensiya bilan bogʻliqlik yuzaga keldi va “Huquqiy pedagogika” fani yaratilishi lozim, chunki huquqiy bilimlarning barchasi huquqiy profilaktikaga boʻysunadi, har qanday qonunning oʻzagi bevosita va bilvosita na faqat jazoga qaratilgan, shuningdek profilaktikaga ham yoʻnaltiriladi va qonun ustuvorligini taʼminlashga “huquqiy pedagogika” yordam beradi.

Demak, Yangilanayotgan Oʻzbekistonda yangi tarbiya bu yoshlarni maksimal darajada huquqiy ongini takomillashtirishga xizmat qiladi va takomillashtirishga xizmat qiladigan shart-sharoitlarni yaratish orqali oʻzini oʻzi tarbiyalash, kasbiy madaniyatini rivojlantirish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan faoliyatdir deb tushunamiz.

Bunday tarbiya turi ichki ishlar organ xodimlarini individuallashtirish<sup>3</sup> va ijtimoiylashuv jarayoni bilan ham bevosita bogʻliqdir. Bugungi tarbiyada qadriyatlar borasida jiddiy oʻzgarishlarni yuzaga keltirdi. Masalan, bizning fikrimizcha oʻtgan XX asrda tarbiya, ayniqsa tarbiyada ichki ishlar organ xodimlarini ongi va xatti-harakatlaridagi oʻzgarishlarga, bugungi XXI asrda esa innovatsiyalar orqali harbiy xizmatchilarni shakllantirish zamon talabi ekanligi asoslantirilmoqda, ushbu fikrlarimiz, gʻoyalarimiz bevosita ichki ishlar organlariga ham taʼluqlidir.

Yangi tarbiya faqat soʻz oʻyinidan iborat emas, balki gʻoya, dunyoqarashlardagi global oʻzgarishlarga asoslanadi. “Tarbiya” kategoriyasi shaxsning ijtimoiy rivojlanishga yoʻnaltirilgan dunyoqarashlarini zamon ijtimoiy qadriyatlarga asoslangan holda shakllanishini talab qilmoqda, siyosatimiz lekin umumqadriyatlar bilan innovatsiyada qarama-qarshiliklar yuzaga kelmoqda va ushbu qarama-qarshiliklarni bir-biridan ajratib turadigan devor yoki chiziqlar yoʻq, uning barchasi gʻoyalar oʻrtasidagi kurashlarda koʻrinadi.

Bugungi kunda tarbiyada “baynalminal”lik, “estetik”, “mehnat” tarbiyasi tushunchalari pedagogikaning kategoriyasi sifatida ohirgi oʻrinlardan birini egallamoqda, ularni oʻrnini huquqiy tarbiya, huquqiy madaniyat, yangilanayotgan Oʻzbekistondagi vatanparvarlik tarbiyalari egallamoqda. Mustaqillikdan keyin tarbiya nazariyasi, metodologiyasi va amaliyotida keng tarqalgan gʻoya bu fuqarolarni oʻzini oʻzi baholash va Z.Freydning “Men” konsepsiyasini oldingi oʻringa chiqarishdan

<sup>3</sup>Психология и педагогика. Под ред. А. Радугина/учебное пособие. М.: Центр, 2002. – С.198.

iborat bo‘lib qolmoqda<sup>4</sup>. Bunda chet el tarbiyasining yoshlar ongiga tezroq singib borishi namoyon bo‘lmoqda. Biz g‘arb pedagogik nazariyasidan bilamizki (Amerika Qo‘shma Shtatlarida) tarbiya kategoriyasini o‘zi to‘rtga bo‘linadi, ya‘ni “Oqilona”, “rivojlanuvchi”, “intutiv” va “ijtimoiy” tushunchalarni o‘z ichiga oladi<sup>5</sup>.

Ushbu tushunchalar bizning mentalitetimizga yaqin ko‘ringan bo‘lsa ham mazmun va amaliy jihatdan bundan ancha yiroq.

Xulosa o‘rnida shuni aytamizki, “Tarbiya” insonning insoniyligini ta‘minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatlardan biri va asosiysidir. Tarbiyasizlik yovvoyilikga olib keladi va bu isbot talab qilmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maxmudov R.M. Harbiy pedagogika va psixologiya. -T.: TVVTU, 1998. -201 bet.
2. Asqarova U.M. va boshqalar. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 2008. B.288.
3. Психология и педагогика. Под ред. А. Радугина/учебное пособие. М.: Центр, 2002. – С.198.
4. Mo‘minova F. Jahon jurnalistika tarixi. O‘quv qo‘llanma. -T.: Universitet, 2004. B.108.
5. Рыжкова И.В., Шербакова Н.А. Психология и педагогика высшей школы: краткий курс лекций для аспирантов, магистров, слушателей системы ПК и преподавателей/ составитель Рыжкова И.В., Шербакова Н.А. Саратов, 2013. – 134 с.

<sup>4</sup>Mo‘minova F. Jahon jurnalistika tarixi. O‘quv qo‘llanma. -T.: Universitet, 2004. B.108.

<sup>5</sup>Рыжкова И.В., Шербакова Н.А. Психология и педагогика высшей школы: краткий курс лекций для аспирантов, магистров, слушателей системы ПК и преподавателей/ составитель Рыжкова И.В., Шербакова Н.А. Саратов, 2013. – 134 с.